

**OILAVIY NIZOLARNI OLDINI OLISHDA FUQARO YIG‘INLARI VA  
PROFLAKTIKA NOZIRLARI HAMKLORLIGINI TA’MINLASH**

*Nazarov Ilxom Alimovich,  
malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy  
fanlar kafedrasi katta o‘kituvchisi podpolkovnik*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yurtimizda barqarorlik, ijtimoiy faravonlik, aholining tinch-osuda hayot kechirishi uchun barcha imkoniyatlarni ta’minlash va shu asosda eng muhimi, istiqlolimiz tufayli erishgan mamlakatimiz, yashab turgan hududimiz tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash har-bir fuqaro, jamoatchilik tashkilotlari va o‘z-o‘zini boshqarish organlari jumladan fuqaro yig‘inlari va proflaktika nozirlari hamklorligini ta’minlash va takomillashtirish haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Mahalladagi oilalar va fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, shaxs xususiyatlari.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida, joylardagi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda mahalla yettiligining o‘rnini va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan huquqiy-me’yoriy hujjatlardan yana biri 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar proflaktikasi” to‘g‘risidagi 371-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonunidir. Ushbu qonunga binoan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi ishtiroki, tegishli hududda jamoat tartibini ta’minlashda, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishi hisobga olinishini tashkil etishda, voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda ularning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ishlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko‘maklashishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda fuqarolar va ularning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faolligini, aholining o‘zaro hamjihatligini oshirish, ularning jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarlik Oilaviy nizolarni oldini olishdagi ishtiroki hamda ushbu sohada huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorligini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq, dolzarb vazifa hisoblanadi.

Hozirgi kunda oilaviy nizolar masalasi eng dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Oilada yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan nizo-janjallarning sabablarini aniqlash va ularning oldini olish masalalarini ijobjiy hal qilish uchun birinchi navbatda ularni kimlar o‘rtasida yuz berayotganligini farqlab olish maqsadga muvofiqdir. Oilaviy

nizolarda kimlar ishtirok etayotganiga ko‘ra ularni quyidagicha asosiy turlarga ajratish mumkin:

- \* er-xotin o‘rtasidagi nizolar;
- \* qaynona-kelin o‘rtasidagi nizolar;
- \* qaynona-kuyov o‘rtasidagi nizolar;
- \* ovsinlar o‘rtasidagi nizolar;
- \* ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi nizolar.

Albatta, bu ro‘yxatni yanada davom ettiraverish mumkin, lekin biz hozircha shu yuqorida keltirilganlar bilangina kifoyalanib, oilaviy hayotda ro‘y berish ehtimoli nisbatan yuqori bo‘lgan nizolarning eng asosiysi bo‘lmish er-xotin o‘rtasidagi nizolarning oldin olish bo‘yicha fuqaro yig‘inlari va proflaktika nozirlari hmkorligida quydagи ma’lumotlarga ega bo‘lishlari kerak:

-Mahalladagi oilalar va fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, shaxs xususiyatlari va o‘zaro oilaviy munosabatlari to‘g‘risidagi to‘liq ma’lumotlar bazasini yaratish.

-Muayyan oilaga aloqador muammolarni o‘rganish, nizoli masalaning mohiyatidan kelib chiqib, oila a’zolariga kerakli ma’lumotlarni yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni tushuntirish va shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ustalik bilan, mohirona ma’lum bir vaziyatga nisbatan qarshilik ko‘rsatishi natijasida vujudga kelganligini aniqlab olishi zarur.

**- Oila va a’zolarining maqsadini ravshan tasavvur qilish va ifodalab bera olishi.** Oilaning nima istayotganligi to‘g‘risida fikri hamda haqiqatda oilaning nimani xohlayotganligi, ya’ni, oila a’zolarini qiynayotgan masala to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lsh, oilaviy muammoni to‘g‘ri anglab, shunga mos holda ish tutmog‘i maqsadga muvofiq.

**- Oila a’zolarida munosabatlarning biror turini shakllantirishga intilmasligi.** fuqaro yig‘inlari va proflaktika nozirlar oila a’zolariga oiladagi rollarni qanday taqsimlash, qanday yashash to‘g‘risida aql o‘rgatmagani, maslahat bermagani ma’qul. Uning asosiy vazifasi munosabatlarning eng maqbul tipini tanlashga ko‘maklashishdir.

**- O‘z imkoniyatlari chegarasini ochiq-oydin tan olishi.** fuqaro yig‘inlari va proflaktika nozirlar oila a’zolaridan muammo va mazkur muammoni hal qilish uchun qabul qilinadigan qarorlarning, shuningdek, ushbu qarorlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarning asl mohiyatini yashirmasligi zarur. Oilaning a’zolarida hech qanday xom xayol, soxta tushuncha, tasavvur yoki o‘rinsiz shubha, ishonchsizlik paydo bo‘lmasligi lozim.

**- Oila a’zolari bilan bir jamoa sifatida ish olib borishi.** hamkorlik g‘oyasini rivojlantirib borishi, o‘z faoliyatida, maslahat berayotgan, yordam ko‘rsatayotgan

mijozida bo‘layotgan o‘zgarishlar, holatlarni oilaning boshqa a’zolari tushunishiga ko‘mak berishi kerak.

- **Oilaning** qiyin vaziyatga tushgan a’zolariga yordam berishga o‘rgangan, qiyinchiliklardan bahamjihat chiqib ketishni uddalaydigan oilalar talaygina. fuqaro yig‘inlari va proflaktika nozirlar bunday imkoniyatlarni o‘z ishlayotgan har bir oilada ko‘ra olishi va shu asosda oila a’zolarida o‘z kuchlariga bo‘lgan ishonch hamda o‘z-o‘ziga hurmatni tarkib toptirishi joiz.

-**Oila** a’zolari chuqur his qilayotgan, biroq ifodalamaslikka intilayotgan salbiy tuyg‘ular (umidsizlik, ko‘ngil sovishi, qo‘rquv, qahr-g‘azab) har soniyada vulqondek portlab, dardini to‘kib solish, ayblov, araz, xafa bo‘lish ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlarga tayyor turishi zarur. Shu bilan birga himoyalanishning o‘rniga hamdardlik bilan javob berishi talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda fuqaro yig‘inlari va proflaktika nozirlari har-bir oila bilan oilaviy nizolarning kelib chiqishi yuzasidan samarali muloqot olib borishi, har bir oilaning qiyin vaziyatlarda yordamga kelishi mumkin bo‘lgan “o‘z kishisi”ga aylanishi zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–T: O‘zbekiston, 2023.;
2. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14-maydag‘i “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 12 iyuldag‘i «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 151-sonli buyrug‘i.
4. Sog‘inov N.A. Oilani o‘rganish psixodiagnostika metodikalari. (Maktab psixologlari, sind rahbarlari, tarbiyaviy ishlar tashkilotchilari, odobnama fani o‘qituvchilari uchun qo‘llanma). - Toshkent - 1996. - 35 b.
5. Shoumaorv G‘.B., Sog‘inov N.A. Yosh o‘zbek oilalarida yuzaga keladigan er-xotin nizolarining etnik xususiyatlari. /O‘zbek oilasining etno-psixologik muammolari. Respubl. ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalarining qisqacha bayoni. – Toshkent, 1993. - B.49-51.
6. Shoumarov G‘.B. va boshq. Onalarga psixolog maslahati (Ona-bola munosabatlari psixologiyasiga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar).–Toshkent, 2002. - 27 b.